

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI  
MUXANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKULTETI  
“Geodeziya va kadastr” kafedrası”

## DIPLOM ISHI TAQDIMOTI

**Mavzu:** “Toshkent viloyati Ohangaron tumani «Sharq yulduzi» fermer  
xo'jaligi kadastrini tuzish”

**Diplom ishining muallifi : 49-12 GK  
Xoltursunova Yulduz Shovkat qizi  
Rahbar: katta o'qituvchi Djalilov O**

**Toshkent 2016**


# КИРИШ

Respublikamiz qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, uni tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiya qilish, umuman barcha sohada bozor munosabatlarini izchil chuqurlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish natijasida iqtisodiyotni yuksalib borishi, inflatsiya darajasini bir maromda pasayib borishi, aholini ish bilan bandligi va turmush darajasi oshishining ta'minlanayotganligi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari bo'lib qolmoqda. Shuni alohida e'tirof etish zarurki, agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tizimida xo'jalik yuritishning yangi shakllari – fermer va dehqon xo'jaliklari tizimini yaratish, ular faoliyatini erkinlashtirish borasida qilinayotgan ishlar bevosita qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

**. Ko'p yillik daraxtzorlar bilan band yerlar – ishlab chiqarish vositasi hamda baholash obyekti sifatida.**


Ma'lumki, asosiy tabiiy resurslar ichida yer alohida xususiyatga ega bo'lgan resurs hisoblanadi. U bir tomondan tabiiy resurs hisoblanadigan bo'lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish vositasi hamda ularni joylashtirishning kenglik asosi ham sanaladi.

Ekologik yoki tabiiy nuqtai nazardan qaraganda yer – quruqlikning muhim birikmasi hisoblanadi, hamda tabiiy resurslarning tarkibiy qismiga kiradi. Bunday resurslarning o'zi kishilar uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar manbai hisoblanadi. Ushbu boyliklardan hozir bizda mavjud bo'lgan texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida keng foydalanish mumkin. Albatta, bunda yuqoridagilar bilan bir qatorda moddiy va mehnat resurslari ham mavjud bo'lmog'i lozim (1.1-chizma).



**1.1-chizma.** Resurslarning umumiy tavsifi.


Iqtisodiy nuqtai nazardan esa yer ishlab chiqarish vositasi sifatida tushuniladi va qaraladi. Yer tushunchasi bu yerda moddiy obyekt hamda jamiyat ishlab chiqarishda mavjud bo'lish jarayonining obyektiv birligi sifatida tushuniladi. Xususan, ishlab chiqarishga jalb qilingan yer ishlab chiqarish vositasiga aylanadi (mehnat predmeti va quroli sifatida). Bu jarayonda yerga, albatta, jonli va buyumlashgan mehnat qo'shiladi.



## O'zbekiston Respublikasi yer fondini yer toifalari bo'yicha taqsimlanishi

№	Yer toifalari	Maydoni	
		Ming ga	%
1	2	3	4
1.	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	20473.5	46.10
2.	Aholi punktlarining yerlari	216.3	0.50
3.	Sanoat,Transport,aloqa,mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	911.0	2.05
4.	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	75.9	0.17
5.	Tarixiy-madaniy maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	4.7	0.01
6.	O'rmon fondi yerlari	9635.9	21.69
7.	Suv fondi yerlari	830.3	1.86
8.	Zaxira yerlari	12262.7	27.62
	Jami yerlar	44410.3	100.0

# OHANGARON TUMANI “SHARQ YUDUZI” FERMER XO’JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI.



Ohangaron tumani 2010 yilda tashkil etilgan. Ma'muriy markazi - Ohangaron tumani. Maydoni - 3193,4 kv.km. (319335 ga) shundan: qishloq xo'jaligi erlari (sug'oriladigan) - 185757 ga, turar joylar, tomorqa erlari – 2451 ga, daraxtzorlar – 38846 ga, va boshqa erlar (muassasalar va tashkilotlar, sanoat hududlari, elektr uzatish tarmoqlari, temir yo'l yo'nalishlari, qabriston, kanal va ariqlar) – 90373 ga. Aholi soni – 126.9 ming kishi.

## “Sharq yuduzi” Fermer xo’jaligi yerlarini yer turlari bo’yicha taqsimlanishi

T/r	Yer turlari	May doni	
		Ga	%
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>1.</b>	Ekin yerlari – jami shundan: sug’oriladigani	1157.0 349.0	15.0 4.5
<b>2.</b>	Ko’p yillik daraxtzorlar – jami shundan: sug’oriladigan	1015.0 474.0	13.1 6.1
<b>3.</b>	Yaylov va pichanzorlar	3626.0	46.9
<b>4.</b>	Qishloq xo’jalik yerlari – jami shundan: sug’oriladigan	5798.0 823.0	74.9 10.6
<b>5.</b>	Tomorqa yerlari – jami	273.0	3.5
<b>6.</b>	O’rmonlar	338.0	4.4
<b>7.</b>	Boshqa yerlar	1329.0	17.2
	Umumiy yer maydoni	7738.0	100.0



## Fermer xo'jaligi mintaqasida tarqalgan tuproqlar.

Tuproqlar	Tuproq nomlari va belgilari	Mexanik tarkibi 0-30sm	Nishabligi	Nishablikning ko'rinishi	Yuvilish darajasi	Maydoni, ga
1.	Tipik bo'z tuproqlar	Og'ir qumoqli	5 <sup>0</sup> -8 <sup>0</sup>	JG'	Kam yuviladigan	324.2
2.	Tipik bo'z tuproqlar	O'rta qumoqli	8 <sup>0</sup> -10 <sup>0</sup>	Sh.Shq.	O'rta yuviladigan	236.4
3.	Sur tusli bo'z tuproqlar	O'rta qumoqli	11 <sup>0</sup> -12 <sup>0</sup>	Sh.Shq.	O'rta yuviladigan	336.0
4.	Och tusli bo'z tuproqlar	Og'ir qumoqli	5 <sup>0</sup> -8 <sup>0</sup>	Sh.Shq.	Kam yuviladigan	184.2
5.	Och tusli bo'z tuproqlar	O'rta qumoqli	30-50	JG'	yuvilmaydigan	312.4
6.						1392.2

## III-BOB. Fermer xo'jaligi yerlarini baholash va kadastrini tuzish.

### **Fermer xo'jaligi xududidagi tuproqlar bonitirovkasini o'tkazish.**

Ma'lumki, tuproq bonitirovkasi deganda, dehqonchilikning samaradorligi va agrotexnikasining tenglashtirilgan darajasidagi tuproqlar unumdorligi bo'yicha uni sifatini taqqoslangan bahosiga aytiladi. Bonitirovka qilishning asosiy maqsadi tuproqlarning tabiiy unumdorligini belgilovchi nisbiy hamda barqaror xususiyatlari bo'yicha bir tuproqni ikkinchisidan necha marta yaxshi yoki yomonligini ko'rsatishdan iborat.

Tuproq osti qatlamining suv o'tkazuvchanlik qobiliyati ham ular unumdorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sizat suvlarini oqib chiqib ketish imkoniyatlari katta bo'lgan yerlar uchun tuzatma koeffitsiyentlar ishning bilovasida keltirilgan.

Tuproq unumdorligini pasaytiruvchi omillar qatoriga suv hamda shamol ta'siridan yemirilish ham kiradi. U notekis rel'efli, yangi sug'orilayotgan maydonlarda, yuqori nishabliklarda yorqin namoyon bo'ladi. Bu mintaqalarda tuproq tuproq jinslari asosan lyoss, prolyuvial va alliyuvial yotqiziqlardan iborat bo'ladi.

# Fermer xo'jaligi tuproqlarini bonitirovka qilish qaydnomasi.

Tup roql ar	Shkal adan olinadigan yuqori ballar	Tuzatma koeffitsientlar						Xisoblangan bonitet balli B	Yer mayd oni P,ga	B-P
		Iqlim bo'yicha	Mexanik tarkibi	Sho'rla nish darajasi	Yuvilis h darajas i	Yer osti qatlami ning	Gipslili k darajas i			
1	80	1.10	0.95	1.00	0.95	1.00	1.00	79	324.2	25612
2	80	1.10	0.90	1.00	0.90	1.00	1.00	75	236.4	17730
3	100	1.10	0.90	1.00	0.90	1.00	1.00	82	336.0	27552
4	60	1.10	0.95	1.00	0.95	1.00	1.00	60	184.2	11052
5	60	1.10	0.85	1.00	1.00	1.00	1.00	56	312.4	17494
<b>Fermer xo'jaligi bo'yicha o'rtacha:</b>								71	1392.2	99440

## Fermer xo'jaligi yerlarining me'yoriy qiymatini xisoblash.

1	Tuproq bonitetining o'rtacha qiymati	ball	71
2	Bir gektar xaydalma yerdan olinadigan yalpi mahsulotlarning me'yoriy qiymati	mln.so'm	6.82
3	Foyda me'yori	%	21.0
4	Me'yoriy sof daromad (2*3)/100	mln.so'm	1.43
5	Bank ssudasining foizi	%	5.0
6	Xo'jalik yuritish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining jadallashganlik darajasi bo'yicha tuzatma	K	1.2
7	Bir gektar yerning bazaviy me'yoriy qiymati (4*6*100)/5	mln.so'm	34.32
8	Yer uchastkasining joylashgan o'rni bo'yicha tuzatma	K	1.22
9	Mahalliy sharoit bo'yicha tuzatma	K	1.00
10	Bir gektar sug'oriladigan yerning me'yoriy qiymati (7*8*9)	mln.so'm	41.87
11	Foydalaniladigan jami sug'oriladigan yer maydoni	ga	1392.2
12	Fermer xo'jaligi yerlarining umumiy me'yoriy qiymati	mln.so'm	58291.4

## Fermer xo'jaliklarining kadastrini tuzish.

Ma'lumki, har qanday fermer xo'jaligining kadastrini tuzish ushbu xo'jalik to'g'risidagi huquqiy, miqdoriy, sifat va qiymat ma'lumotlarini to'plash asosida amalga oshiriladi. Ushbu ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ravishda ushbu xo'jaliklarning manzillari, xo'jalik rahbarlarining ma'lumotlari (shaxsini tasdiqlovchi xujjat asosida) yer uchastkalarini alohida xususiyatlari yoritiladi.

Xususan, ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda biz "Sharq yulduzi" fermer xo'jaligini kadastr ma'lumotlarini quyidagicha shakllantiramiz (3.7-jadval)

## “Sharq yulduzi” fermer xo’jaligining kadastrini tuzish.

T/R	Ma’lumotlar	Fermer xo’jaligi
1	Ixtisosligi	Bog’-uzumchlik
2	Fermer xo’jaligining boshlig’i	Nizamov Ixtiyor
3	Yer uchastkasiga bo’lgan huquqlar turi	Ijara
4	Huquqni tasdiqlovchi hujjatlar	Ijara shartnomasi (2010-yil 01.03. 152sonli xokimining qarori)
5	Yer uchastkasidan foydalanish muddati	24 yil
6	Yer uchastkasining umumiy maydoni	43.1
7	Bog’lar	6.0
8	Uzumzorlar	22.1
9	Tuproqlarning o’rtacha bonitet balli	70
10	1ga yerning iqtisodiy (me’yoriy) qiymati mln.so’m	41.24

## UMUMIY XULOSA.

Diplom ishining asosiy vazifasi-bu fermer xo'jaligini kadastrini tuzishdan iborat.

Bunda fermer xo'jaligining umumiy ma'lumotlari, huquqiy, miqdoriy, sifat hamda qiymat ma'lumotlari to'plandi, umumiy jadval ko'rinishida berildi va bir tizimga keltirildi. Bunday kadastr ma'lumotlarining bir qismi har yili o'zgarib turishi (yer turlarining miqdoriy ko'rsatkichlari) mumkin. Shu sababli fermer xo'jaligi kadastr xujjatlari va ma'lumotlarini har yili bir marta yangilab turish tavsiya qilinadi. Fermer xo'jaligi kadastr ma'lumotlarini doimiy ravishda yangilab turish, ularni shu kunning talabi darajasida ushlab turish ular maydonlaridan to'g'ri va oqilona foydalanishni tashkil etishda muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

**E'TIBORINGIZ  
UCHUN RAXMAT**

